

TOG'AY MURODNING "YULDUZLAR MANGU YONADI" ASARIDA KONFLIKT UNSURINING NAMOYON BO'LISHI

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-
bosqich talabasi **Shomurodova Dilnoza***

Xusanovna

*Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası assistenti **Yusupov Sardor Shodi o'g'li***

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri – Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida badiiy konflikt, ya'ni ziddiyat elementlarining turli shakllarda namoyon bo'lishi atroflicha tahlil etiladi. Asarda konfliktlar faqatgina voqealar zanjiri orqali emas, balki obrazlar ruhiyati, ularning o'zaro munosabati, jamiyatdagi o'rni va hayotga bo'lgan qarashlaridagi tafovutlar orqali yoritiladi. Bo'ri polvon va Nasim o'rtasidagi do'stlik va xiyonatga asoslangan ziddiyat orqali insoniy munosabatlar mohiyati ochib berilgan. Shu bilan birga, qahramonning ichki kechinmalari, or-nomus va vijdon bilan olib borayotgan kurashi ruhiy konflikt sifatida tahlil qilinadi. Ushbu asarda yigit kishi uchun mardlik, or-nomus, qadr-qimmat, milliy an'analarimizga hurmat naqadar yuqori qiymatga ega ekani, insoniylik, tuyg'ulari sofliqi, chin do'stlik kabilar ham ulug'lanadi.

Kalit so'zlar. Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi, konflikt, ziddiyat, ichki kurash, tashqi to'qnashuv, Bo'ri polvon, sadoqat, xiyonat, ijtimoiy muammo.

Adabiyot – bu inson ruhiyatining, jamiyat hayotining badiiy ifodasidir. Shu ma'noda yozuvchi – jamiyatning teran mushohada qiluvchi ko'zgu egasi, qalblar tarjimoni hisoblanadi.

XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator iste'dodli shoirlar kabi Tog'ay Murod ham kirib keladi. Tog'ay Murod o'zining ijodiy rejalariga birovlarini aralashtirmas, unga ta'sir o'tkazishga bo'lgan urinishlarini hech ham yoqtirmas, shovqin-suronli davrlardan o'zini olib qochar edi. Butun fikri-zikri o'qib o'rganish,

tinimsiz ijodiy mehnat qilish bilan band bo'lardi. Tog'ay Murodning iste'dodli yozuvchi sifatida ko'rsatgan dastlabki yirik asari 1976-yilda dunyoga keldi. Bu "Yulduzlar mangu yonadi" nomli qissa edi. [3:123]

Adabiy asarlar – hayot aksidir. Har qanday jiddiy badiiy asarning yuragida ma'lum bir konflikt turadi.

Ushbu maqolada "Yulduzlar mangu yonadi" asaridagi insonlar orasidagi muomala munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar, konflikt unsurlarining namoyon bo'lishi, uning turlari va adabiy asarlardagi ahamiyati yoritiladi.

Konflikt (lot.to'qnashuv) deganda badiiy asar personajlarining o'zaro kurashlari, qahramonning o'z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama qarshiliklar tushuniladi. Konfliktning bir nechta turlari mavjud. Bu qarama qarshiliklarni tabiatiga ko'ra turli turlarga bo'lishi mumkin.

- 1) xarakterlararo;
- 2) qahramon va muhit;
- 3) ichki(psixologik);
- 4) odam va tabiat;
- 5) inson va jamiyat;
- 6) inson va taqdir.

Ushbu toifalar bir-birini istisno qilmaydi va ko'plab asarlar bir nechta ziddiyatlarni o'z ichiga oladi. Buni "Yulduzlar mangu yonadi" asari misolida ko'rib chiqamiz.

Asar bosh qahramoni Bo'ri polvonning eng katta ichki konflikti – do'sti Nasimning xiyonatini bilgan holda, unga qarshi qanday munosabatda bo'lish masalasidir. Uning qalbidagi iztirob, vijdon azobi quyidagi iqtibosda yaqqol ko'rinadi.

"Nasim oshna, ko'zinga ko'rinib, yaramni yangilading. Yana-tag'in, o'g'limni-da yiqitding.

Bilib qo'y, oshna... izingdan surganim-surgan! Qayerda davra bo'lsa, izingdan quvib boraman!

Tilovberdini o'g'ling bilan uch safargacha olishtiraman. Bordi-yu, uch martasida-da o'g'ling o'ktam kelsa... unda, na iloj, uchdan keyin puch...

Baribir qo'ymayman! Ana, nevaralarim bor! Nasib bo'lsa, nevaramni nevarang bilan olishtiraman! [5:44]

Bu satrlar Bo'ri polvonning ichki iztirobini, do'stining xiyonatiga nisbatan kechirimsizlik va adolat istagini ifodalaydi.

Asarda Bo'ri polvonning jamiyatdagi o'zgarishlarga, milliy qadriyatlarning yo'qolishiga bo'lgan noroziligi tashqi konflikt sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikrlari orqali muallif jamiyatdagi muammolarni ochib beradi.

“Xalq nimasi bilan xalq?

O'zining urf-odatlarini bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq!

Ko'p urf-odatlarimizni birovlar...birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik.

Shunday keta bersak, hademay... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz!

Bu yog'i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Xiyol bo'lmasa, xalqning o'zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin dedik! Bugun buni yo'qota bersak, ertaga uni yo'qota bersak, adirdagi...podadan nima farqimiz qoladi?... [5:53]

Bu iqtibos Bo'ri polvonning milliy qadriyatlar urf-odatlar yo'qolishiga bo'lgan tashvishini ifodalaydi.

Bo'ri polvon va Nasim o'rtasidagi do'stlik, Nasimning xiyonati orqali sinovdan o'tadi. Bu konflikt asarda asosiy dramatik chiziqni tashkil etadi. Bo'ri polvonning Nasimga nisbatan his-tuyg'ulari quyidagi satrlarda aks etadi.

“Nasim oshna, mening sendan o'zga-da oshnalarim ko'p. Bari tirikchilik yuzasidan. Sendan ugina, mendan bugina qabilida.

Oshna, bolalik oshnaga... bolalik oshnaga kelmaydi! [5:60]

Bu so'zlar orqali Bo'ri polvonning Nasimga bo'lgan ishonchi, do'stlikka bo'lgan sadoqati va xiyonatga nisbatan og'riqli munosabati ifodalanadi.

Asarda do'stining, elining, xalqining, vohasining ori uchun jismoniy qarama-qarshiliklarni ko'rishimiz mumkin.

“Yulduzlar mangu yonadi” asarida konflikt unsurlari bilan insoniylik, do'stlik, vijdon, milliy qadriyatlar singari mavzular yoritiladi. Bo'ri polvon obrazi orqali muallif jamiyatlardagi hayotidagi muammolarni, inson qalbidagi kurashlarni tasvirlaydi. Asar o'quvchini o'z-o'zini tahlil qilishga, jamiyatlardagi o'zgarishlarga befarq bo'lmaslikka undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, O'zbekiston, 2002.
2. G.Xalliyeva. Adabiyotshunoslik. Toshkent, 2017.
3. Adabiyot, 6-sinf, 2-qism. 4-nashr. Toshkent, Ma'naviyat, 2017-yil.
4. To'xtamishova Madina. “Tog'ay Murodning yulduzlar mangu yonadi asarida milliylik ruhi” maqolasi.
5. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. Toshkent, Ziya nashr, 2020.